

№	Yo'nalish kodi	Ta'lim yo'nalishi nomi	Kunuzgi	Sirtqi	Egallaydigan kasbi
35	60730300	Qurilish muhandisligi: bino va inshootlar qurilishi		+	Muxandis - Quruvchi

Yo'nalish tavsifi

Bino va inshootlar qurilishi (sanoat va fuqaro binolari) bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va texnika sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'lib, qurilish sohasini rivojlantirishga, istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, uslublari hamda sanoat va fuqaro binolari loyihalarini bajarish va tuzilgan loyiha natijalarini amalda qo'llash, bino va inshootlarning texnik ekspluatatsiyasi, turar–joy binolariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, energiya samarali sanoat va fuqaro binolarini loyihalash bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

Yuqorida keltirilgan kasbiy faoliyat sohasining ishlab chiqarish jarayonlari kam va ko'p qavatli turar–joy binolari, jamoat binolari, davlat boshqaruvi binolari, barcha turdagi sanoat korxonalarini binolari ob'ektlarida usta (master), ish yurituvchi (prorab) bo'lib ishlash, qurilishda qo'llaniladigan materiallar va konstruksiyalarning sifatini nazorat qilish, turar–joy, jamoat va sanoat binolari qurilish texnologiyasiga rioya qilinishini nazorat qilish, turar–joy, jamoat va sanoat binolari qurilishida texnik hujjatlarni (ishlarni bajarish grafiklari, yo'riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga buyurtmalar) tuzish, qurilish ob'ektlarini loyihalash, qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish kabi kasbiy faoliyati turlari bilan shug'ullanadi.